

9-sinf O'zbekiston tarixi

16-dars: Umumlashtiruvchi dars.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarning avvalgi darslarda o'rgangan mavzular bo'yicha materiallarni takrorlab, umumlashtirib, egallagan bilimlarining yodda saqlanishini ta'minlash hamda o'quvchilarning tarixiy bilimlarini chuqurlashtirish;

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

Tarixiy xotira, tarixiy tafakkurini shakllantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;


Shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

Olgan bilimlaridan xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Bilimlarni mustahkamlovchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash",
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt	
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa	
2	O'tilgan mavzularni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash	35 daqiqa	
3	Darsga yakun yasash	Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	5 daqiqa	
4	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa	

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.



II. O'tilgan mavzularni takrorlash:


O'tilgan mavzu quyidagi savol va topshiriqlar yordamida mustahkamlanadi:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Guruhlarga **Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishiga** oid qisqacha ma'lumotlar yozilgan kartochkalarni quyidagi Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi deb yozilgan plakatga mos javoblarni joylashtirib chiqish topshirig'i beriladi.



1-guruh: Qo'qon xonligiga oid ma'lumot yozilgan kartochkalarni joylashtiring?

2-guruh: Buxoro amirligiga oid ma'lumot yozilgan kartochkalarni joylashtiring?

3-guruh: Xiva xonligiga oid ma'lumot yozilgan kartochkalarni joylashtiring?


Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishiga oid qisqacha ma'lumotlar yozilgan kartochkalardan namunalari

1852- yil Perovskiyning Oqmachitga hujumi va mag'lubiyatga uchrashi	1853- yil - Oqmachitning bosib olinishi va «Perovskiy forti» deb nomlanishi	1864-yil 4-iyun Avliyootaning Chernyayev tomonidan bosib olinishi	1864-yil 12-iyul Vervovkin tomonidan Turkistonning bosib olinishi
1864-yil 22-sentabr Chernyayev tomonidan Chimkentning bosib olinishi	1865- yil - Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyatining tashkil etilishi;	1865- yil 17-iyun Toshkentning zabt etilishi;	1867-yil Turkiston general- gubernatorligining tashkil etilishi.
1866-yil 8-may Erjar yaqinida Buxoro amiri qo'shinlarimg chor Rossiyasi tomonidan mag'lub etilishi	1866-yil 24-may Xo'jandning Romanovskiy qo'shini tomonidan egallanishi	1866-yil O'ratepaning Rossiya imperiyasi tomonidan egallanishi	1865-yil 18-oktabr Jizzaxning bosib olinishi
1868-yil 2-may Samarqandning jangsiz egallanishi	1868-yil 2-iyun Zirabuloqda amir qo'shinlarimg mag'lubiyatga uchrashi	1868-yil 28- iyun - Buxoro ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi	



1873-yil 12-avgust - Turkiston general-gubernatori fon Kaufman va Muhammad Rahimxon II tomonidan «Gandimiyon shartnomasi»ning imzolanishi	1839-yil Perovskiy qo‘shinlarining Xivaga yurishi va mag‘lubiyati	1873-yil 18- may - Kaufman otryadlarining Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Mang‘it qal‘alarini bosib olishi	1714-yil Xiva xonligiga qarshi birinchi yurish
1873-yil 29 may - Kaufman otryadlarining Hazoraspga kirib kelishi va Xiva shahrini egallashi			

2-topshiriq: “Aqliy hujum” metodi o‘tkaziladi. Guruhlarga o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:



Guruhlarga beriladigan savollar:

1. Turkiston general-gubernatorlik boshqaruvi kimlardan iborat bo'lgan?
2. 1886-yilgi «Nizom» bo'y'dia boshqaruvda qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. Rossiya imperatorining siyosiy agentligi vazifasi nimadan iborat edi?
4. Nima uchun podsho hukumati yerga egalik qilishni to'liq o'z qo'lga olishga harakat qildi?
5. Vaqf yerlarini tugatishdan maqsad nima edi?
6. Rus aholisi nima maqsadda Turkistonga ko'chirilgan?
7. Mahalliy aholi vakillari boshqaruvning qaysi bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatgan?

III. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

IV. Uyga vazifa:



O'tilgan mavzularni takrorlash.
Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

